

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING YOSH VA IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kamoldinov Islomjon Kamoldinovich

Andijon viloyati Shahrixon tumani 8-maktab psixologi

Saydaliyeva Mashrabxon Muxtorovna

Andijon viloyati Shahrixon tumani 46-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ularning psixik rivojlanish bosqichlari, ta'lim jarayonidagi o'ziga xos jihatlari hamda ijtimoiy muhitning bola shaxsiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur va muloqot ko'nikmalarining shakllanishi psixologik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish, o'quvchi shaxsi, ijtimoiy muhit, diqqat, xotira, tafakkur, motivatsiya, muloqot.

KIRISH

Boshlang'ich sinf davri bolaning hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning shaxs sifatida shakllanishi, bilim olishga bo'lgan qiziqishi va ijtimoiy muhitga moslashuvi boshlanadi. Boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar odatda 6–10 yosh oralig'ida bo'lib, bu davr psixologiyada kichik maktab yoshi deb yuritiladi. Ushbu yosh bosqichi bolaning jismoniy, aqliy va emotsional rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy yosh xususiyatlaridan biri ularning yuqori darajadagi qiziquvchanligidir. Ular atrofdagi voqea-hodisalarni bilishga, yangi ma'lumotlarni o'rganishga intiladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilim olishga bo'lgan tabiiy ehtiyoj kuchli bo'ladi. O'qituvchining vazifasi esa ushbu qiziqishni to'g'ri yo'naltirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Bu yoshdagi bolalarda diqqat hali to'liq barqarorlashmagan bo'ladi. Ular uzoq vaqt davomida bir faoliyat bilan shug'ullanishda qiynaladi va tez chalg'iydi. Shu sababli dars jarayonida ko'rgazmali vositalar, interaktiv metodlar va o'yin elementlaridan foydalanish samarali natija beradi. Ayniqsa, o'yin faoliyati boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologiyasida muhim o'rin egallaydi. O'yin orqali bola nafaqat dam oladi, balki fikrlash, muloqot va ijtimoiy munosabat ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining xotira jarayonlari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu davrda obrazli xotira kuchli rivojlangan bo'lib, bolalar ko'rgan

va eshitgan narsalarini tez eslab qoladi. Shu bilan birga, mantiqiy tafakkur asta-sekin shakllanib boradi. O'qituvchilar tomonidan beriladigan topshiriqlar bolaning yosh xususiyatiga mos bo'lishi muhimdir. Aks holda o'quvchida charchoq, qiziqishning pasayishi yoki o'ziga ishonchsizlik holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Boshlang'ich sinf yoshida bolalarning emotsional holati ham juda sezgir bo'ladi. Ular kattalarning munosabatiga kuchli e'tibor beradi va maqtov hamda rag'batlantirishga ehtiyoj sezadi. O'qituvchi yoki ota-onaning qo'llab-quvvatlashi bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Aksincha, doimiy tanbeh yoki salbiy munosabat bolaning psixologik holatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Ijtimoiy-psixologik jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoaga moslashish jarayonini boshdan kechiradi. Ular tengdoshlari bilan muloqot qilish, do'stlashish va jamoada o'z o'rnini topishga harakat qiladi. Shu davrda sinfdagi psixologik muhit bolaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom va do'stona muhit bolaning ijtimoiy faolligini oshiradi hamda ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tushunchalar ham shakllana boshlaydi. Yaxshi va yomon xatti-harakatlarni farqlash, qoidalarga rioya qilish, kattalarga hurmat va mas'uliyat hissi aynan shu davrda rivojlanadi. Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayonining uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila muhiti ham boshlang'ich sinf o'quvchisining psixologik rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Ota-onalarning mehribonligi, e'tibori va farzand bilan samimiy munosabati bolaning hissiy barqarorligini ta'minlaydi. Oilada sog'lom muhit mavjud bo'lsa, bola maktabdagi faoliyatida ham faol va ishonchli bo'ladi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimida bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki har bir bola o'ziga xos qobiliyat, xarakter va rivojlanish sur'atiga ega. Shu sababli pedagog va psixologlarning hamkorlikdagi faoliyati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar 6–7 yoshdan 11–12 yoshgacha bo'lgan bolalar bo'lib, ular boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanadi. Bu davrda bolaning hayoti va faoliyatida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ushbu davrda bolaning qiziqishlari o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga asta-sekin ko'chib o'tadi. O'qishga xos qiziqishlar ko'pincha bolalarning o'yin faoliyatiga ta'sir etadi, o'yinlarning xarakteri va mazmunini o'zgartiradi. Har qanday ishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan motivlarga bog'liq bo'lib, inson ana shu motivlar yordamida faoliyat bilan shug'ullanadi. O'qish motivlari turlicha bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlarini bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlashda motivlarga kamroq amal qiladilar. Bola hali motiv haqida chuqur o'ylab ko'rishdan ancha uzoqda bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bola o'z bilim doirasini kengaytirish, foydali bilimlar olish, shuningdek, jamiyat oldidagi burchini bajarish

haqida ham uncha bosh qotirmaydi. Shu sababli bunday motivlar unda ikkinchi darajali hisoblanadi. Ammo uning o‘zi nima qilayotgani va maktabda bilib olayotgan narsalarga bevosita qiziqishi, shuningdek, o‘qituvchi va ota-onalar talablarini bajarishga intilishi, maqtov eshitishi, qilgan ishining ma’qullanishi, yaxshi baholar olishi kabi omillar o‘qishga nisbatan qiziqishni uyg‘otuvchi eng muhim vositalarga aylanadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar faoliyatini baholash ularda o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim aҳатиятга ega. Yetti yoshli bolalarda maktabga va o‘qishga bo‘lgan dastlabki qiziqish hamda havaslar asosan ixtiyorsiz diqqat jarayonida yuz beradigan bevosita qiziqishlar hisoblanadi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarda keyinchalik diqqat-e’tiborni muayyan narsaga, voqelik va hayotning ma’lum bir sohasiga hamda muayyan faoliyatga uzoq vaqt davomida va barqaror qaratishda namoyon bo‘ladigan bilvosita qiziqishlar sekin-asta shakllana boshlaydi.

Dars jarayonida va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni tobora kengroq tushunib boradilar. Turli narsalarga qiziqqa boshlaydilar, ularning qiziqishlari esa asta-sekin takomillashib, barqaror tus ola boradi. Endilikda maktab o‘quvchilarini tevarak-atrofdagi ayrim hodisalargina emas, balki o‘sha hodisalarning sodir bo‘lish sabablari ham qiziqтира boshlaydi. Shu sababli bu davrda bola tomonidan beriladigan “Nega bunday?”, “Nimadan qilingan?”, “Bu nima uchun kerak?” kabi savollar soni ortib boradi.

Bolada ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘proq narsalarni bilib olishga, yuqori baholarga erishishga ehtiyoj va zarurat paydo qilish lozim. Shundagina u o‘zidagi bu talabni qondirishga harakat qiladi va faoliyat ko‘rsatadi. Dars materiallarini puxta o‘zlashtirishga, o‘qituvchi topshiriqlarini sifatli bajarishga intiladi. Buning uchun bolani muayyan kun tartibiga odatlantirish va muntazam dars tayyorlashga o‘rgatish zarur. Shundagina u o‘qishda muayyan muvaffaqiyatlarga erishadi va unda o‘qishga havas uyg‘onadi.

O‘qishning dastlabki kunlarida bolalar sinfdagi dars mashg‘ulotlariga juda qiziqadilar. Ularni ayniqsa rasm chizish, yozish, doskaga chiqish, qo‘l ko‘tarib o‘qituvchi savollariga javob berish kabi faoliyatlar qiziqtiradi. Keyinchalik ular nafaqat dars jarayonining o‘ziga, balki mashg‘ulotlarning mazmuniga ham qiziqqa boshlaydilar. Shu davrda bola sinfda va uyda bajargan ishlarini o‘qituvchiga tezroq ko‘rsatishga oshiqadi. O‘qituvchining o‘quvchi bajargan vazifani og‘zaki ma’qullashi esa uni nihoyatda quvontiradi.

Bolalarning bu xususiyatlarini yaxshi bilgan mohir o‘qituvchilar ularning e’tiborini faqat yozishga yoki topshiriqlarni tez bajarishga emas, balki topshiriqlarni sifatli bajarish, to‘g‘ri va chiroyli yozish zarurligiga ham qaratadilar. Shuningdek, topshiriqlarni puxta bajargan, to‘g‘ri va chiroyli yozgan o‘quvchilarni o‘z vaqtida

rag‘batlantirib boradilar. Natijada o‘quvchilar asta-sekin dars mazmuniga qiziqadigan va topshiriqlarni sifatli bajarishga harakat qiladigan bo‘lib boradilar.

O‘quvchilar o‘qituvchilarning “Yaxshi yozibsən”, “To‘g‘ri bajaribsən”, “Barakalla” kabi og‘zaki ma‘qullashlarigagina emas, balki daftarga qo‘yiladigan baholarga ham qiziq boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda o‘qishga qiziqishning ortib borishida ularning o‘z bilim va tushunchalari takomillashayotganini sezishlari, o‘z imkoniyatlarining ortib borayotganini anglashlari katta ahamiyatga ega.

Ma‘lumki, maktablarda bolalarni og‘zaki baholash odat tusiga kirgan, chunki birinchi sinf o‘quvchisi ana shu baho ta‘sirida o‘z faoliyatini kuchaytiradi, ijodiy izlanishga harakat qiladi. Hatto o‘quvchi dastlabki paytlarda “yaxshi” yoki “yomon” bahoning farqiga ham uncha bormaydi, uni ko‘proq nechta baho olgani qiziqtiradi. O‘qituvchining rag‘batlantirishi esa uning uchun eng muhim omil hisoblanadi.

O‘quvchilarda III–IV sinflardan boshlab burch hissini anglash sezilarli ravishda namoyon bo‘la boshlaydi. Ammo bu yoshdagi burch hissi hali yetarli darajada barqaror va to‘liq mustaqil bo‘lmaydi. Maktab ta‘limining boshidanoq bola ham oilada, ham maktabda tarbiyaviy ta‘sir ostida bo‘ladi. Shu sababli tarbiyaviy ta‘sirlarning bir xil yo‘nalishda bo‘lishi komil shaxsni tarbiyalash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning ular haqidagi fikr va baholariga qarab, o‘zlariga baho beradilar. O‘quvchining o‘z-o‘ziga beradigan bahosi asosan o‘qituvchining bahosiga va turli faoliyatlardagi muvaffaqiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘z-o‘ziga baho berish yuqori, adekvat yoki past bo‘lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalardagi ishonuvchanlik va itoatkorlik kabi xususiyatlar ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlari yuzaga keladigan va mustahkamlanadigan davr deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar ham rivojlanadi. Bolalarda mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog‘liq. Agar bola haddan tashqari ishonuvchan, itoatkor va ochiq bo‘lsa, unda asta-sekin bo‘ysunuvchanlik va tobelik xususiyatlari mustahkamlanib boradi. Biroq bolani juda erta mustaqillikka undash ham ayrim salbiy xususiyatlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin, chunki bola hayotiy tajribalarni ko‘proq boshqalarga taqlid qilish orqali o‘zlashtiradi.

Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko‘proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuningdek, shunday ijtimoiy-psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga mas‘uliyatli vazifalarni mustaqil bajarish topshirilsin. Bu ishlarni bajarish jarayonida bola o‘zini tengdoshlari,

kattalar va boshqa odamlar orasida yetakchi sifatida his qilsin. Ana shu hissiyot bolada mustahkam irodani shakllantiruvchi motivlarni yuzaga keltiradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning xarakteriga xos yosh xususiyatlariga mehribonlik, bilimga qiziquvchanlik, to'g'rilik va ishonuvchanlik kabi ijobiy xislatlar ham kiradi. Bu yoshdagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri taqlidchanlikdir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar katta yoshdagilarga, ayrim tengqurlariga, shuningdek, yaxshi ko'rgan kitoblari va kinofilmlaridagi qahramonlarga taqlid qilishga intiladilar. Bu holat bir tomondan shaxsning ijtimoiy qimmatli xislatlarini namuna orqali tarbiyalash imkonini bersa, ikkinchi tomondan ayrim xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin, chunki bola faqat ijobiy tomonlarnigina emas, balki salbiy jihatlarni ham qabul qilishi ehtimoldan xoli emas.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar juda emotsional bo'ladilar. Bu emotsionallik birinchidan, ularning idroki, kuzatuvlari, xayollari va aqliy faoliyati emotsional bo'yoqlarga boy bo'lishida ko'rinadi. Ikkinchidan, ayniqsa I–II sinf o'quvchilari o'z hissiyotlarini tiyib tura olmaydilar, hissiyotlarning tashqi namoyon bo'lishini nazorat qilishda qiynaladilar. Ular xursandchilik, tashvish, g'amginlik, qo'rquv, qanoatlanish yoki qanoatlanmaslik hissiyotlarini samimiy va ochiq ifodalaydilar.

Uchinchidan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar emotsional beqarorliklari, kayfiyatlarining tez-tez o'zgarib turishi, affekt holatlariga moyilligi, xursandchilik, g'amginlik, g'azab va qo'rquv hissiyotlarining qisqa muddatli, ammo kuchli namoyon bo'lishi bilan ajralib turadilar.

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun mehnatning tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kattadir. O'quvchilarga doimiy ravishda yangilanib borayotgan axborotni mustaqil ravishda o'zlashtirib borishga yordam beradigan, shuningdek, fan-texnika taraqqiyotidan ortda qolib ketmaslik imkonini yaratadigan tafakkur sifatlarini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida tizimni tubdan isloh qilishning muhim omillaridan biri sifatida "milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik va o'z vatani bilan faxrlanish tuyg'usining shakllanishi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga hamda xalqimizning intellektual merosiga hurmat" alohida ta'kidlangan. Shu sababli o'quvchi yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir qarashda vatanparvarlik tuyg'usi hammaga tushunarli tushunchadek tuyuladi. Ammo ilmiy izlanishlar uning falsafiy, siyosiy, ijtimoiy va ruhiy-tarbiyaviy jihatdan murakkab hamda keng qamrovli tushuncha ekanligini ko'rsatmoqda.

Demak, vatanparvarlik tuyg‘usini tor ma’noda tushunmaslik kerak. Aksincha, u jamiyat, xalq, mamlakat va butun insoniyat manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lgan keng qamrovli tushunchadir.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday ta’kidlagan edi: “Chindan ham, Vatan tuyg‘usi, Vatan tushunchasi biz uchun sajdagohdek pok va ulug‘ bo‘lmog‘i kerak. Vatanni ardoqlash, uni yomon ko‘zlardan va harakatlardan asrab-avaylash, himoya qilish, kerak bo‘lsa, ona yurtimiz uchun jonimizni ham fido qilishdek buyuk insoniy fazilatni o‘rganmog‘imiz lozim”.

Bugungi kunda yurtiga va ona Vatanga cheksiz muhabbat tuyg‘usini qalbida mujassam etgan, ma’rifatga chanqoq, barkamol yoshlarni tarbiyalash o‘qituvchilar va ziyolilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Kichik maktab yoshidagi bola dunyoni go‘zal his etsa, uning qalbida vatanparvarlik tuyg‘usi yanada kuchli uyg‘onadi. Kelajakka bo‘lgan ishonch va orzu-umidlar keng qanot yozadi. Shu bilan bir qatorda bola muammolar bilan yashashni ham o‘rganishi lozim. Unda “Nega bunday?”, “Nima uchun shunday bo‘lishi kerak?” kabi savollar paydo bo‘lishi zarur. Bunday savollarga javob izlash esa kelgusida o‘quvchini yanada yaxshi o‘qishga, mehnatsevarlikka hamda ma’naviy-axloqiy poklikka undaydi. O‘quvchida qayg‘urish, achinish, dildan iztirob chekish, tashvishga tushish va hayajonlanish kabi hissiyotlar yuzaga keladi. Ana shunda bolada dunyoni yanada aniqroq idrok qilish ehtiyoji paydo bo‘ladi, o‘ziga xos did va fahm-farosat shakllanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu davrda bolalarning psixologik rivojlanishiga to‘g‘ri yondashish, ularni qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Goleman D. Emotional Intelligence. Bantam Books, 1995.
2. Mayer J.D., Salovey P. What is Emotional Intelligence? 1997.
3. Выготский Л.С. Психология развития человека.
4. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка.
5. Karimova V.M. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2010.
6. G‘oziev E.G. Psixologiya. Toshkent, O‘qituvchi nashriyoti.